


UO‘K: 553.98:551.24

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.38

BUXORO-XIVA NEFTGAZLI REGIONNING MARKAZIY QISMIDA MEZOOY-KAYNOZOYDA RIVOJLANGAN STRUKTURALARNING NEFTGAZLI MAYDONLARNI AJRATISH



Axmedov Xolxo'ja Raxmatullayevich

(PhD), Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O'zbekiston

E-mail: axmedov-x-68@mail.ru

ORCID ID: 0009-0007-7715-7240

Science ID: FQD-0426-0008

Annotatsiya. Maqolada uchinchi rutba lokal strukturalarning yoshi bo'yicha va makonda joylashish munosabatlarining tahlili natijalari keltirilgan, va bu strukturalar mezozoy-kaynozoy tarixining turli bosqichlarida shakllanganligi, regionning rivojlanishining turli bosqichlarida uchinchi rutba lokal strukturalar bilan ma'lum UV konlarining joylashish bog'liqligi, regionning mezozoy-kaynozoyda rivojlangan strukturalarining paleotektonik xususiyatlarini hisobga olib neftgazli maydonlarni ajratish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek maqolada konlarning joylashishini tahlili uchinchi rutbaga tegishli lokal antiklinal strukturalari shaklini ifodalagan xaritalar bilan bog'lab bajarilgan. Quyi-o'rta yura terrigen yotqiziqlarida uchinchi rutba MZ-KZ deformatsiyasi turli fazalarida hosil bo'lgan lokal antiklinal strukturalari ajratilgan. Bularning tahlili asosida uch toifadagi maydon ajratilgan. Paleotektonik ma'lumotlar asosida neftgaz to'planish zonalari ajratilgan.

Kalit so'zlar: mezozoy-kaynozoy, deformatsiya, paleogen, neogen-to'rtlamchi, faza, neftgaz to'plami, Buxoro pog'onasi, Chorjo'y pog'anasi, gazokondensat, geologik kesim, gaz uyumi, gorizontlar.

ВЫДЕЛЕНИЕ НЕФТЕГАЗОНОСНЫХ ПЛОЩАДЕЙ МЕЗОZOY- КАЙНОZOYСКОГО РАЗВИТИЯ СТРУКТУР В ЦЕНТРАЛЬНОЙ ЧАСТИ БУХАРО-ХИВИНСКОЙ НЕФТЕГАЗОНОСНОЙ РЕГИОН

Ахмедов Холхужа Рахматуллаевич

(PhD), Каршинский государственный технический университет, Карши, Узбекистан

Аннотация. В статью приводятся результаты анализа возрастного и пространственного соотношения локальных структур третьего ранга, сформированных на различных этапах мезозой-кайнозойской истории, связи пространственного размещения известных месторождений УВ с локальными структурами третьего ранга различных этапов развития региона, результаты выделения нефтегазоносных площадей с учётом палеотектонических особенностей мезозой-кайнозойского развития структур региона. Также в статью приведён распределения месторождений выполнен в связи со структурным планом третьего ранга, представленным локальными антиклинальными структурами – потенциальными ловушками УВ в двух аспектах. В целом, на основе палеотектонических данных выделены зоны нефтегазонакопления, в которых наблюдается группирование месторождений УВ на площадях, отличающихся возрастом заложения и унаследованностью, а также перестройкой и появлением новых элементов.

Ключевые слова: мезозой-кайнозой, деформация, палеоген, неоген-четвертично, фаза, нефтегазонакопления, Бухарской ступени, Чарджоуской ступени, газоконденсат, геологически разрез, залежи газа, горизонты.

IDENTIFICATION OF OIL AND GAS BEARING AREAS OF THE MESOZOIC-CENOZOIC DEVELOPMENT OF STRUCTURES IN THE CENTRAL PART OF THE BUKHARA-KHIVA OIL AND GAS REGION

Akhmedov Kholkhoja Rakhmatullayevich

(PhD), Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. The article presents the results of the analysis of the age and spatial relationships of local structures of the third rank formed at various stages of the Mesozoic-Cenozoic history, the relationship between the spatial distribution of known hydrocarbon deposits and local structures of the third rank at various stages of the region's development, the results of the allocation of oil and gas-bearing areas taking into account the paleotectonic features of the Mesozoic-Cenozoic development of the region's structures. The article also presents a distribution of fields based on a third-rank structural plan, represented by local anticline structures—potential hydrocarbon traps in two aspects. Overall, based on paleotectonic data, oil and gas accumulation zones are identified, in which hydrocarbon fields are clustered in areas differing in age and inheritance, as well as reorganization and the emergence of new elements.

Keywords: Mesozoic-Cenozoic, deformation, Paleogene, Neogene-Quaternary, phase, oil and gas accumulation, Bukhara stage, Chardzhou stage, gas condensate, geological section, gas deposits, horizons.

Kirish. Mezozoy-kaynozoy tarixining tektonik harakatlari va deformatsiyasining turli fazalarda namayonlangan paleotektonik xaritalarini tahlili natijalari bo'yicha erta-o'rta yura, kechki yura, bo'r, paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarning barcha beshta fazasi bo'yicha ajratilgan uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar namayonlangan maydonlarni umumlashtirilgan sxema-xaritasi tuzilgan (1-rasm).

O'rganilgan ko'pgina maydonlar erta-o'rta yuradan neogen-to'rtlamchi vaqtgacha mezozoy-kaynozoy tarixining barcha bosqichlarida aniqlangan tuzilmalar holatining mosligi bilan tavsiflanadi. Bu yurada rivojlangan tuzilmalar merosiy tavsifga ega ekanligiga guvohlik beradi. Bundan tashqari boshqa xususiyatlar ham belgilangan – navbatdagi bosqichlarda yangi lokal tuzilmali elementlarni asosan paleogen va neogen-to'rtlamchi vaqtda hosil bo'lishi bilan tuzilmali rejani qayta qurilishi sodir bo'lgan [1].

1-rasmdan yangi elementlarni namayonlanishi bilan erta davrlardan eng qadimgilarni merosiyli, hosil bo'lgan tuzilmalar yoshini farqlanishiga qarab, ajratilgan turli tipdagi

maydonlarda UV konlarini gruhiylanganli ko'rinib turibdi. Bundan tashqari, turli geologik tarixni ajratilgan maydonlarida tushmagan alohida konlar gruhi ham mavjud.


Adabiyotlar tahlili va metodlar. Neftgaz to'plami zonasi mansub bo'lgan paleotektonik mezonlar bo'yicha ajratilgan zonalarni ta'rifiga to'xtalamiz. Bu 2-rasmga keltirilgan [1].

Buxoro pog'onasi hududida quyidagi zonalar ajratilgan: BC1 - Maymanak-Mubarek, BC2 - Karim-Shim.Darbaza, BC3 - Yulduzkak, BC4 - Djarkak-Setalantepe, BC5 - Shurchi-Karaiz, BC6 - Saritash-Qaraulbazar, BC7 - Djangul-Koshtepa, BC8 - Shorkuduk -Kaltakir (2-rasm). Zonalarni qisqacha tavsifini keltiramiz.

BC1-Maymanoq-Muborak. Bu zona mezozoy-kaynozoy rivojlanishining barcha bosqichlarida –erta yura, kechki yura, bo'r davrida, paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarda uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar kuzatilgan. Har bir ajratilgan turli yoshdagi maydonlarda UV konlari mavjud. Bunda eng qadimgi tuzilmalar zonaning janubiy qismida rivojlangan bo'lib, shimolga tomon tuzilmalar yosharib borgan. Zonaning shimoliy

qismi neogen-to'rtlamchi yoshdagi tuzilmalarni namayonlaydi. Umuman bu zonada Shumak, Shim.Muborak, Xodjixayram, Jan.Muborak, Karakum gazkondensat konlari, Chuvama, Rasulquduq, Shimoliy Maymanak neftgaz-kondensat konlari mansub.

BC2 – Karim – Shimoliy Darboza. Maydon erta-o'rta yura va kechki yura davrlaridagi uchinchi rutbali lokal tuzilmalarni qamrab oladi. Bu zonada Karim neftgazkondensat koni, Shimoliy Darboza gazkondensat koni mansub.



1-rasm. UV konlari mavjud bo'lgan mezozoy-kaynozoy harakatlarining turli yoshdagi fazalarini uchinchi rutbali lokal tuzilmalar namayonlangan sxemali-xaritasi


(Tuzuvchilar X.R.Axmedov, R.A.Umurzakov, 2023):

1-erta-o'rta yura (aktiv faza), 2 – kechki yura (passiv faza), 3 - bo'r (aktiv faza), 4 - paleogen (passiv faza), 5 - neogen-to'rtlamchi (aktiv faza). UV konlari: 6 - neftli, 7 - neftgazli, 8 –neftgazokondensatli, 9 - gazli, 10 - gazokondensatli. 11-uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar mavjud bo'lmagan alohida neftgazli zona.

BC3 – Yulduzkak. Erta-o'rta yura, paleogen va neogen-to'rtlamchi yoshidagi lokal tuzilmalar tarqalgan maydonni qamrab olgan. Zona hududida Yulduzkak, Janubiy Yulduzkak, Janubiy-G'arbiy Yulduzkak gaz konlari, G'arbiy Yulduzkak gaz neft koni joylashgan.

BC4 – Djarkak – Setalan tepa. Uchinchi rutbali lokal antiklinal ko'tarilmalarga mansub bo'lmagan alohida zona. Bu zonada Setalantepa gaz koni, Djarkak va Akdjar neftgaz konlari mansub [1,

4, 5]. Bu zonada mezozoy-kaynozoy tarixining o'rganilgan oraliqlaridan birontasida ham uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar aniqlangan emas. Yuqoridagi konlarni mahsuldor qatlamlarining geologik qirqimi tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik amplitudali cho'ziq tuzilmali elementlarni namayonlaydi, ko'p hollarda braxiburmachan va uchinchi rutba sathida qabul qilingan tadqiqot miqyosida bu tuzilmalarni ajratish ikoniyati yo'q. 3-rasmda Djarkak koni mahsuldor qatlamining XV gorizont ustki yuzasi bo'yicha tuzilmali xaritasi va geologik qirqimi keltirilgan [1, 10].





2-rasm. Uchinchi rutbali turli yoshdagi tuzilmali elementlarga mansub neftgaz to'planish zonalari (MZ-KZ tektonik harakatlarning turli fazalarida hosil bo'lgan):

(Tuzuvchilar R.A.Umurzakov, X.R.Axmedov, 2023): 1-erta-o'rta yura (aktiv faza), 2-kechki yura (passiv faza), bo'r (aktiv faza), 4-paleogen (passiv faza), 5-neogen-to'rtlamchi (aktiv faza). 6-boshqa tabiiy holatlarda hosil bo'lgan neftgaz to'planish zonalari, ehtimol yuqori rutbali tuzilmali elementlar bilan bog'liq (bu yerda 3-rutbali tuzilmali elementlar mavjud emas). UV konlari: 7-neftli, 8-neftgazli, 9-neftgazkondensatli, 10-gazli, 11-gazkondensatli. Harfli simvollar: BC-Buxoro, ЧC-Chorji pog'analari belgilangan.

BC5 – SHo'rchi – Karaiz. Tudako'l ko'lidan janubiy-sharqda joylashgan bo'lib bo'r va paleogen davrlarida hosil bo'lgan uchinchi rutbali lokal tuzilmalar namayonlangan maydonlarni o'z ichiga

oladi. Bo‘r va paleogen davrida hosil bo‘lgan tuzilmalar holatining mos kelishi neft konlarida namayonlangan. Janubiy-sharqiy yo‘nalish tomon SHO‘rchi gaz koni va Karaiz neft koni joylashgan. Qirqimning bu qismi yura yotqiziqlarining yo‘qligi va paleozoy yotqiziqlarining ustiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘r yotqiziqlarining yotishi bilan tavsiflanadi.

BC6 – Saritash-Qaraulbozor. Bu zona o‘zida bo‘r, paleogen va neogen-to‘rtlamchi davrlar yoshida namayonlangan lokal tuzilmalarni birlashtiradi. Bu yerda Saritash (Qaraulbozor) koni joylashgan.



3-rasm. Djarkak koni mahsuldor qatlamining tuzilish tavsifi:

(S.S.Yusupxodjayev va boshqalar bo‘yicha, 2021).

BC7 – Djangul-Koshtepa. Boxoro shahridan janubroqda joylashgan, uchinchi rutbali tuzilmalar namayonlangan maydonlarni o‘z ichiga oladi: markaziy qismida-erta-o‘rta yura (sharqiy qismida), bo‘r, paleogen va neogen-to‘rtlamchi, hamda shimoliy-g‘arbiy qismida kechki yura yoshidagi tuzilmalar. Zona tektonik elementlarning umumiy oriyentirlanishiga mos shimoliy-sharqiy oriyentirga ega. Zonada Chuqurko‘l, Koshtepa gaz konlari va Djangul, Qalandar gazkondensat konlari to‘g‘ri keladi.

BC8 – Shorkuduk-Kaltakir. Bu zona tadqiqot qilinadigan hududning shimoliy-g‘arbida joylashgan, uchinchi rutba timalar rivojlangan maydonlarini birlashtiradi, bu tuzilmalar quyi-o‘rta

yura, yuqori yura, bo‘r, paleogen va neogen-to‘rtlamchi davrlari turli yoshdagi yotqiziqlarda yaqqol namayonlanadi. Bu uchastka lokal tuzilmalar merosiy va regionning mezozoy-kaynozoy tarixi davomida uzoq mudat rivojlanishi bilan tasiflanadi.

Buxoro-Xiva neftgazli regionining markaziy qismi Chorjo‘y pog‘anasi hududida mezozoy-kaynozoy tarixining uchinchi rutbali tuzilmalarining merosiy rivojlangan uchastkalari mansub quyidagi neftgazli zonalar ajratiladi (2-rasm): ЧС1 - Kruk-Zekri, ЧС2 - Yangi Darboza-Djebe, ЧС3 - Pomuq-Chiston, ЧС4 - O‘rtabuloq-Dengizko‘l, ЧС5 - Kultak-Kokdumaloq, ЧС6 - Djarchi-Umid, ЧС7 - Kumsultan-Divalkak, ЧС8 – Girsan, ЧС9 – Ernazar, ЧС10 – Beshkent, ЧС11 - Alat –Kuvachili, ЧС12 – Tegermon.

Bu zonalarini qisqacha tasnifini keltiramiz.

ЧС1 – Kruk-Zekri. Zona erta-o‘rta yura va kechki yura, bo‘r, neogen-to‘rtlamchi davrlardagi turli yoshdagi tuzilmalardan iborat uchastkalarni birlashtiradi, bu holat asosan sharqiy qismda kuzatiladi, 3-rutbali kechki yura, paleogen va neogen-to‘rtlamchi davrda hosil bo‘lgan tuzilmalarning g‘arbiy qismida kengayishi kuzatiladi. Bu zonaning sharqiy qismida Shimoliy Ispanli, Sarikum neft konlari, g‘arbiy va janubiy qismida Kruk, Janubiy Kemachi, Janubiy Zekri, Doston, Sharqiy Ispanli neftgazkondensat konlari joylashgan [3]. Bu yerda turli xususiyatli va yoshdagi deformatsiya ustma-ust kelishi bilan bog‘liq hosil bo‘lgan burma tuzilmalarining murakkabligi kuzatiladi.

ЧС2 – Yangi Darboza-Djebe. Maydoni bo‘yicha uncha katta bo‘lmagan bu zona o‘zida erta-o‘rta yura va kechki yura joylashma tuzilmalarining maydonini birlashtiradi. Bu zonada eng kechki tuzilmalar hosilalari uchramadi. Bu yerda Yangi Darboza, Marjon neft konlari, Djebe, Shoda gazkondensat konlari va Supali neftgazkondensat koni joylashgan.

ЧС3 – Pomuq-Chiston. Bu zona uchinchi rutbali turli yoshdagi tuzilmalar maydonini o‘zida birlashtiradi: erta-o‘rta yura, kechki yura, bo‘r, paleogen va neogen-to‘rtlamchi davrlarga mansub. Zonaning g‘arbiy va o‘rta qismlarida aniqlangan ustma-ust tushgan tuzilmali elementlar ustunlik qilgan ikkita uchastka belgilangan. Neogen-to‘rtlamchi tuzilmali elementlar maydoni zonaning

oʻrta qismidan gʻarb va sharq tomon kengayib borgan. Zonaning oʻrta qismida Arniyoz neftgaz koni, Illanli gazkondensat koni, Yangi Pomuq neftgazkondensat koni, Berdiquduq, Pomuq gazkondensat konlari joylashgan. Zonaning gʻarbiy qismida Sardob neftgaz koni, Chiston, Jumakon neft koni, Zevarda gazkondensat konlari joylashgan.

ЧС4 – Oʻrtabuloq-Dengizkoʻl. Zona erta-oʻrta yurada hosil boʻlgan va uning alohida uchastkalari kechki yura, boʻr vaqtida merosiy rivojlangan lokal tuzilmalar joylashmasi bilan tavsiflanib, neogen-toʻrtlamchi vaqtida shimoliy-gʻarbiy qismi aktivlashgan (Shodi uchastkasida). Zonada shimoliy –sharqiy qismida Shimoliy Oʻrtabuloq, Janubiy Oʻrtabuloq neft konilari Chegara guruhi neftgazli konlari, Oʻrtabuloq gazkondensat koni joylashgan [1, 6]. Zonaning shimoliy-gʻarbiy qismida neogen-toʻrtlamchi davrda hosil boʻlgan antiklinal tuzilmali maydonlar aniqlangan qismida Dengizkoʻl, Shodi, Shim.Shodi gazkondensat konlari ustunlik qiladi.

ЧС5 – Kultak-Kokdumaloq. Uch xil xususiyatli va bir biriga yaqin joylashgan Kultak, Alan va Kokdumaloq maydonlarni birlashtirgan yagona zona. Kultak va Alan maydonlaridagi lokal antiklinal tuzilmalar erta-oʻrta yurada hosil boʻlgan boʻlib, kechki yurada merosiy rivojlangan. Alan maydonidan farqli ravishda Kultak maydonida lokal tuzilmalarning rivojlanishi boʻr, paleogen va neogen-toʻrtlamchi vaqtlarida rivojlanishni davom etgan. Kokdumaloq maydonida tuzilmalar paleogenda hosil boʻlgan va neogen-toʻrtlamchi davrda rivojlangan. Zonada Kultak, Alan, Janubiy Alan gazkondensat konlari, Shim.Kultak, Kokdumaloq, neftgazkondensat konlari, P.Kokdumaloq rift osti, Gʻarbiy Alan, Uzunkuduk neft konlari joylashgan.

ЧС6 – Djarchi-Umid. Zona kechki yurada antiklinal tuzilmalarning hosil boʻlishi bilan tavsiflanadi. Tektonik harakatlar va deformatsiyaning keyingi fazalarida bu tuzilmalar namayonlanmagan va yuqori yura yotqiziqlarida, boʻr, paleogen va neogen-toʻrtlamchi davrlarda yaqqol namayonlangan musbat tuzilmali elementlar sezilmaydi. Bu zonada Djarchi, Umid neftgazkondensat konlari, Shim.Umid neft konlari mansub.

ЧС7 – Qumsulton-Divalkak. Kechki yura, paleogen va neogen yoshidagi lokal tuzilmalar

maydonlarini birlashtiradi. Zonaning gʻarbiy yoʻnalishida tuzilmalarning yosharib borishi kuzatiladi. Bu zonada Chandir, Janubiy Chandir, Gʻarbiy Kokchi, Gavana, Divalkak gazkondensat konlari mansub. Sharqda yoshi boʻyicha eng qadimgi tuzilma sifatida (kechki yura) Matonat neft koni namayonlanadi.

ЧС8 – Girsan. Zona paleogenda hosil boʻlib, va keyinchalik neogen-toʻrtlamchi davrda rivojlangan lokal antiklinal tuzilmalar joylashmasi bilan tavsiflanadi. Bu zonada Girsan, Shim.Girsan, Chigil, Divxona gazkondensat konlari, zonaning shimolida-Chilquvar, sharqiy qismida yaqin-Nazarquduq konlari mansub.


ЧС9 – Ernazar. Zona tadqiqot hududining janubiy-gʻarbiy qismida joylashgan boʻlib, neogen-toʻrtlamchi davrda hosil boʻlgan lokal tuzilmalarning namayonlanishi va amplitudasi 50-120 metr atrofidagi antiklinal tuzilmalar gumbaz koʻrinishida yaqqol namayonlanganligi bilan tavsiflanadi. Zonada Qirquloq, Talimardjon, Ernazar gazkondensat konlari joylashgan. Bu konlarni barchasi yuqori yura karbonat yotqizilariga (XV gorizont) mansub. Bu zonadagi uyumlarda uglevodorod toʻplamlari neogen-toʻrtlamchi davrda burmalarni hosil boʻlishi bilan birga yoki hosil boʻlgandan keyin toʻplangan deb hisoblaymiz. Choʻkindi qatlamlarning shakli bir-biriga mosligi, bir vaqtda deformatsiyalanganligi boʻyicha konlarning geologik qirqimining tasnifi bu haqda guvohlik beradi. Qatlam orasidagi bir xillik va mastahkam qalinlikga egaligi erta-oʻrta yura, kechki yura shuningdek boʻr davrlari tinch sharoitda rivojlanganligini koʻrsatadi.

ЧС10 – Beshkent. Bu zona erta-oʻrta yurada uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalarni shakillanishi bilan tavsiflanib kechki yurada merosiy rivojlangan va boʻr davrida hamda paleogenda bu tuzilmalarning rivojlanish belgilari mavjud emas (4-rasm). Neogen-toʻrtlamchi vaqtda bu maydonda yana lokal antiklinal tuzilmalar namayonlangan (5-rasm). Bu zonada Beshkent neftgazkondensat koni mansub [1].

ЧС11 – Alat-Kuvachili. Oʻrganiladigan hududning gʻarbiy qismida joylashgan boʻlib, Kuvachili uchastkasida uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar erta-oʻrta yurada hosil boʻlishi bilan tavsiflanadi va Yamandjar hamda Shurkak maydonlari yaqinida kamroq namayonlangan. Bu

tuzilmalarni kechki yurada merosiy rivojlanishi davom etib, kichik amplituda bilan umumiy konfiguratsiyasini (ko'rinishini) saqlab qolgan. Bo'r va paleogen vaqtlarda bu maydonda antiklinal tuzilmalar ajratilmagan. Neogen-to'rtlamchi vaqtda yana Kuvachili lokal antiklinal tuzilmasi sifatida namayonlanadi. Zonada Kuvachili, Alat gaz kondensat konlari va zonaning chegara hududlarining sharqiy zonasida Sharqiy Alat gaz kondensat koni joylashgan.

ЧС12 – Tegermon. Bu zona mezozoy-kaynozoy barcha ko'riladigan fazalarida tanlangan tadqiqot masshtabida uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalarning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi (BC4 zonada ham shunday). Bu zonada tegermon, G'arbiy Tegermon, Shimoliy Tegermon gaz kondensat konlari joylashgan. Tegermon maydoning geologik kesimida gaz kondensat uyumlari yuqori yura yotqiziqlarida hosil bo'lgan bir-biriga yaqin joylashgan ikkita antiklinal burmalarga to'plangan. Sharqiy qismi Tegermonga mansub, g'arbiy qismi G'arbiy Tegermon deb yuritiladi. Burmalarning o'lchami 5 x 4 va 6 x 3 km tashkil qiladi. Shimoliy Tegermon ham yuqori yura karbonat yotqiziqlarida uncha katta bo'lmagan antiklinal burmani namayonlaydi. Gaz uyumi XVa i XV b gorizontlarda to'plangan.




4-rasm. Kechki yurada paleogenda hosil bo'lgan (ko'k rangda belgilangan) 3-rutbali lokal tuzilmalarining ustma-ust tushirilgan sxemasi (tuzuvchilar: A.X.Nugmanov materiallaridan foydalanib R.A.Umurzakov, X.R.Axmedov, 2023).

Buxoro va Chorjo'y pog'onalarida ajratilgan barcha zonalar bo'yicha o'tkazilgan tahlillardan ko'rinib turibdiki uchinchi rutbali antiklinal tuzilmalar turli paleotektonik tarixda hosil bo'lgan bo'lib, uglevodorod uyumlarining potensial tutqichlari yoki shunday obyektlar guruhi hisoblanadi. [11, 12]

Uchinchi rutbali lokal tuzilmalarni rivojlanish yoshi va hosil bo'lish ko'rsatgichlari bo'yicha barcha zonalarini quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

1 toifa – uchinchi rutbali tuzilmalar erta-o'rta yura vaqtida hosil bo'lgan va barcha kechki fazalarda merosiy rivojlangan jumladan neogen-to'rtlamchi davrda ham rivojlangan zona. Bu toifada BC1, BC3, BC7, BC8, ЧС3, ЧС4, ЧС5 zonalar kiradi;



5-rasm. Kechki yurada neogen-to'rtlamchi davrda hosil bo'lgan (ko'k rangda belgilangan) 3-rutbali lokal tuzilmalarining ustma-ust tushirilgan sxemasi (tuzuvchilar: A.X.Nugmanov materiallaridan foydalanib R.A.Umurzakov, X.R.Axmedov, 2023)

2-toifa – uchinchi rutbali tuzilmalar erta-o'rta yura vaqtida hosil bo'lgan va faqat kechki yura fazasidagi harakatlar va deformatsiyada merosiy rivojlangan zona. Bu toifada BC2, ЧС2 zonalar kiradi;

3-toifa – uchinchi rutbali tuzilmalar kechki yura yoshida shakillanib keyingi kechki

deformatsiyalar ta'sir qilmagan bu toifaga ЧС6 zonasi mansub;

4-toifa – uchinchi rutbali tuzilmalar kechki yurada hosil bo'lib, keyingi paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarda namayonlangan. Bu toifaga ЧС7 zonasi mansub;

5-toifa – uchinchi rutbali tuzilmalar bo'r davrida hosil bo'lib, paleogenda merosiy rivojlangan (БС5), yoki paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarda merosiy rivojlangan (БС6, ЧС11);

6-toifa - uchinchi rutbali tuzilmalar paleogenda hosil bo'lib, neogen-to'rtlamchi davrlarda rivojlanishni davom etirgan (ЧС8); yoki neogen-to'rtlamchi davrda shakillangan (ЧС9 zona);

7-toifa – uchinchi rutba uchun lokal antiklinal tuzilmalarning namayonlanishi topilmagan, lekin bir nechta konlar guruhini o'z ichiga oladi. Bu toifaga БС4, ЧС12 zonalar kiradi.

Deyarli barcha UV konlari yuqorida ajratilgan zonalarga guruhlangan [1].

Xulosa. Tadqiqot o'tkazilgan hududning

boshqa qismlari tadqiqotning ushbu masshtabi sathida uchinchi rutbali lokal antklinal tuzilmalar aniqlanmagan, bu qismda alohida konlarga mansub yoki noantiklinal tipdagi yuqori rutbali tuzilmali elementlar mavjud bo'lishi mumkin [2]. Tadqiqot o'tkaziladigan hudud chegarasida bunday konlarda Sho'rtepa neftgaz koni, Isitmoq, Hosil gazkondensat konlari, shuningdek Uzunshor va Samontepa neftgazkondensat konlari misol bo'ladi. Oxirgi ikkita kon neogen-to'rtlamchi davr lokal antiklinal tuzilmalar namayonlangan uchastkada mansub bo'lsada, erta-o'rta va kechki yura gorizontlarida uchinchi rutbali tuzilma siqatida namayonlanmagan. Bu tuzilmalar yuqori rutbali tuzilmali elementlarga mansub bo'lishi mumkin, bunday uchastkadagi tutqichlar na faqat mayda antiklinal balki noantiklinal tipdagi tutqichlar mavjud bo'lishi mumkin (litologik va tektonik ekranlashgan tipdagi tuzilmalar) [8, 9, 13, 14].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Умурзаков Р. А., Ахмедов Х. Р., Тураев Ш. А. (2024). Палеотектодинамический анализ формирования ловушек нефти и газа центральной части Бухаро-Хивинского региона. Карши: Intellekt. – 152 с.
- [2] Юлдашев Г. Ю. (2018). Комплексование электроразведочных и термогеохимических съемок при поиске нефтегазоперспективных объектов в Бухаро-Хивинском регионе. SOCAR Proceedings, №1, 21–27.
- [3] Шоймуротов Т. Х., Султанова Д. Б., Мажидов Ш. Ж., Маликов М. Р., Ишанкулов К. И. (2022). Оценка нефтегазоносности ниже-среднеюрских отложений площади Умид на основе комплекса геолого-геофизических предпосылок. В: Состояние и перспективы развития геологоразведочных работ на нефть и газ Республики Узбекистан (12 октября 2022 г., Ташкент), 16–22.
- [4] Юлдашев Н. Н., Хикматуллаев Б. С., Султанова Д. Б., Шокиров А. Ш., Мажидов Ш. Ж. (2022). Новый выявленный объект Янги Каранкуль для подготовки под поисковое бурение. В: Состояние и перспективы развития геологоразведочных работ на нефть и газ Республики Узбекистан (12 октября 2022 г., Ташкент), 70–73.
- [5] Хикматуллаев Б. С., Сафонова Л. Н., Яхьяев А. А. (2013). Геологическое строение и перспективы нефтегазоносности Учбаш-Каршинской флексурно-разрывной зоны. Узбекский журнал нефти и газа, №2, 27–30.
- [6] Хожиев Б. И., Турсунова Т. М. (2016). Оценка перспективности терригенной юрской формации в пределах Денгизкульского поднятия. В: Современный прогноз углеводородного потенциала недр и прогрессивные технологии поисково-разведочных работ на нефть и газ (17–18 ноября 2016 г., Ташкент), 46–48.

- [7] Богданов А. Н., Хмыров П. В., Абдураимов М. Х., Тухтаев Р. Р. (2022). Определение рейтинга подготовленных структур и выделение первоочередных объектов для геологоразведочных работ. В: Состояние и перспективы развития геологоразведочных работ на нефть и газ Республики Узбекистан (Ташкент), 12–15.
- [8] Богданов А. Н., Хмыров П. В. (2021). Динамика развития сырьевой базы углеводородов Бухаро-Хивинского региона. Нефтегазовая геология. Теория и практика, 16(4), 1–15. http://www.ngtp.ru/rub/2021/33_2021.htm
- [9] Абдуллаев Г. С., Богданов А. Н., Эйдельмант Н. К. (2019). Месторождения нефти и газа Республики Узбекистан. Ташкент. – 818 с.
- [10] Абдуллаев Г. С., Эйдельмант Н. К., Богданов А. Н. (2020). Результаты реализации программы геологоразведочных работ по изучению палеозойского комплекса Бухаро-Хивинского региона. Актуальные проблемы нефти и газа, 1(28), 2–28. <https://doi.org/10.29222/ipng.2078-5712.2020-28.art2>
- [11] Шаропов М. (2016). Исследования глубинного геологического строения Бухарской и Чарджоуской ступеней. В: Современный прогноз углеводородного потенциала недр (Ташкент), 78–82.
- [12] Султанов Ш. А., Салимов Б. О. (2016). Региональные исследования геологического строения Бухаро-Хивинского региона. В: Современный прогноз углеводородного потенциала недр (Ташкент), 82–84.
- [13] Каршиев О. А., Аббасова С. А. (2016). Возобновление поисково-разведочных работ на структуре Южный Уртабулак. В: Современный прогноз углеводородного потенциала недр (Ташкент), 58–60.